

BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INTERFAOL METODLAARNING AHAMIYATI

Ahmedov Muslimjon Usmonovich

Qo'qon Universiteti "Raqamli texnologiyalar va
matematika" kafedrası o'qituvchisi

Shavkatova Mohiraxon Baxtijorxon qizi

Qo'qon Universiteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Matematika hamma aniq fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo'lib o'sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi.

Shavkat Mirziyoyev

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematika darslarini tashkil etishda interfaol metodlarning ahamiyati va metodlarning to'g'ri qo'llanilishi natijasida dars samaradorligiga erishish usullari haqida muhokama qilinadi, maqolada interfaol metodlarning asosiy turlari, ularning boshlang'ich sinf matematika darslarida qo'llanilishi va samaradorligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: interfaol metodlar, dars samaradorligi, zamonaviy ta'lim, o'quvchi, o'quvchi faolligi, boshlang'ich sinf, matematika darslari, zamonaviy dars.

Kirish: Mamlakatimizda matematika 2020-yildagi ilm-fanni rivojlan-tirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi. O'tgan davr ichida matematika ilm-fani va ta'limini yangi sifat bosqichiga olib chiqishga qaratilgan qator tizimli ishlar amalga oshirildi.¹

Bugungi kunda ta'lim jarayonini takomillashtirishda interfaol metodlardan foydalanish muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qitishda bu uslublarning o'ziga xos o'rni bor. Interfaol metodlar o'quvchilarning darsdagi ishtirokini faollashtiradi, mustaqil fikrlash va amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi. Darslarda interfaol metodlardan foydalanish orqali matematika faniga

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 07.05.2020 yildagi PQ-4708-son

bo'lgan qiziqishni oshirish, mavzuni chuqurroq tushunish, mantiqiy fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantirish mumkin.

Matematika faniga kirish darslarida interfaol usullardan foydalanish so'nggi yillarda ommalashib bormoqda, pedagoglar o'quvchilarni qiziqtirish va ta'lim natijalarini oshirishning innovatsion usullarini izlamoqda. Interfaol metodika darslarini yanada oshirish matematika darslarini o'quvchilarga masalalar ustida ishlash va ko'nikmalarni rivojlantirish usullaridir. Bu metodlar o'quvchilarning ishtirok etishini kuchaytirishadi va masalalarni yechishda ularga yordam beradi.²

Asosiy qism: Interfaol metodlar — bu o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi faol muloqotga asoslangan, o'rganilayotgan mavzuni chuqur anglashga qaratilgan o'qitish usullari majmuasidir. Bu metodlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, bilimlarni amalda qo'llay olishini va jamoa bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Boshlang'ich sinfda interfaol metodlar quydagicha qo'llanilinadi: boshlang'ich sinf o'quvchilari yoshiga xos psixologik va fiziologik xususiyatlarga ega bo'lganligi sababli darslar ko'proq ko'rgazmali, qiziqarli va faol ishtirokga asoslangan bo'lishi kerak. Matematika darslarida quyidagi interfaol metodlardan keng foydalanish mumkin:

- “Aqliy hujum” — o'quvchilarning erkin fikr yuritishiga imkon yaratadi.
- “Blits-so'rov” — bilimlarni tezkor tekshirish va faollikni oshirishga xizmat qiladi.
- “Topishmoq va masalalar” — mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi.
- “Guruhda ishlash” — jamoaviy muhokama, fikr almashish, fikrlarni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.
- “Rol o'ynash”— masalalarni hayotiy vaziyatlar bilan bog'lab o'rganish imkonini beradi. Bu metod asosan boshlang'ich sinf o'quvchilariga mos tushadi.

Misol: 2-sinf matematika darsida “Qarshiligi 100 dan kam bo'lgan sonlar bilan amallar” mavzusida dars o'tkazilayotganda, o'quvchilarni guruhlariga bo'lib, ularga qiziqarli masalalar berish, natijalarni taqqoslash va himoya qilish orqali dars samaradorligini oshirish mumkin. Bundan tashaqi 3-sinf matematika darsida “To'plamlar” “To'plamlar birlashmasi”, “To'plamlar kesishmasi” kabi mavzularda

² Umirbaeva Ulzada Nukus davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10901966>

Eyer-Venn diagrammasini noannanaliy shaklini o'tkazilsa darsga yangicha yondashilgan bo'ladi.

Interfaol metodlarning ko'pgina avzalliklari bo'lib siz bilan ulardan ayrimlarini ko'rib o'tamiz:

-O'quvchilar faol ishtirokchi bo'ladi, bilimni tayyor holatda emas, izlanish orqali oladi.

-Yod olish emas, tushunish asosida o'rganiladi.

-Muloqot va jamoada ishlash ko'nikmasi shakllanadi.

-Qiyinchiliklarni mustaqil hal qilishga o'rgatadi.

-Har bir o'quvchining individual qobiliyati inobatga olinadi.

Matematika darslarida interfaol metodlardan samarali samarali bo'lishi uchun, o'rganuvchilarni qatnashuvchi darslar va tajribalar bilan almashish shart. Sinfda interfaol sifatli o'quv jarayoni aniq bo'lgan holda o'rgangan bo'lsa, talabalar masalalarni yechish va chertish bilan o'zlashtirishgan qism bo'ladi.³

Bundan tashqari interfaol metodlarni o'z vaqtida qo'llamaslik oqibatda dars jarayonining asosiy qismi qolib ketishi, darsning asosiy qismiga yangi mavzu bayoniga ulgurmaslik holatlari kuzatiladi. Shunday holatlar yuz kelmasligi uchun har bir pedagog inter, faol, metod, dars kabi tushunchalarning mohiyatini anglashlari lozim. Hamda dars jarayonida ularni to'g'ri qo'llay bilishlari kerak.

Xulosa: Boshlang'ich sinf matematika darslarida interfaol metodlardan foydalanish nafaqat darsning qiziqarli va samarali o'tishini ta'minlaydi, balki o'quvchilarda mustaqil fikrlash, mantiqiy tahlil, ijodkorlik, hamkorlikda ishlash kabi muhim ko'nikmalarni rivojlantiradi. O'qituvchilar har bir darsga puxta tayyorlanib, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qo'llasa, o'quvchilar matematika faniga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lib, o'z bilimlarini chuqurlashtira oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 07.05.2020 yildagi PQ-4708-son
2. Umirbaeva Ulzada Nukus davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabasi <https://doi.org/10.5281/zenodo.10901966>

³ Umirbaeva Ulzada Nukus davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10901966>

3. Umirbaeva Ulzada Nukus davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabasi <https://doi.org/10.5281/zenodo.10901966>
4. "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" – T. Xodjayeva, A. Umarova. – Toshkent, 2021.
5. S. Sharipova. "Innovatsion pedagogik texnologiyalar" – Toshkent, 2019.
6. I. Abduqahhorov. "Matematika darslarida interfaol metodlar" – "Yangi asr avlodi", 2020.
7. Ziyonet portali (www.ziyonet.uz) – pedagogik resurslar